“A. Abdelmalek, A. L. Tibavi va E. Saidning g'oyalarni salbiy qabul qilgan bir qator olimlar ushbu tanqidiy tahlillarning barchasi Evropa falsafasining asarlari va g'oyalarga asoslanganligini, bu esa o'z navbatida G'arb sharqshunosligi tanqidining nomuvofiqligini ko'rsatadi” [8, 27-b] degan argumentni ilgari surishadi. Ularning fikricha, sharqshunoslikni tanqid qilishda G'arb nazariy asoslaridan foydalanish tanqidchilarning xolisligi va izchilligiga putur yetkazadi, chunki ular, aslida, o'zlari fosh qilmoqchi bo'lgan “obyekt” bilan bir xil intellektual an'analarga tayangan holda tanqidiy diskussiyani tashkil qilayotgan edilar. Biroq, bu holatni oqlash va tushuntirish mumkin, masalan, “A. Abdel-Malik mustamlakachilik va imperializmga nisbatan nafratni his qilgan, shuning uchun G'arb tafakkur asoslarini tanqid qilgan marksistik g'oyalar unga munosib nazariy asos bo'lib xizmat qilgan”

[9, 103-b]. A.L.Tibaviy inglizzabon tarixchilarning islom va arab madaniyatiga nisbatan dushmanligidan g'azablangan edi. U ko'plab G'arb tadqiqotchilari Islom va arab dunyosini o'rganishga ustunlik pozitsiyasidan yondashgani, bu esa ushbu madaniyatlarga nisbatan salbiy stereotiplar va noto'g'ri tushunishlarga olib kelgan, deb hisoblab, ularni noxolislik va noto'g'ri talqin qilishda ayblaydi. Tibaviy islom va arab tarixiga nisbatan xolis va hurmat bilan yondashish tarafdori bo'lib, ularning xilma-xilligi va murakkabligini tan olish, shuningdek, ilm-fanda yevropatsentriзм mafkurasida xalos bo'lish zarurligini ta'kidladi [10, 3-b]. E. Said uchun shaxsiy ya'ni vatan va uy, milliy o'ziga xoslikni yo'qotish hissi, adabiy tanqid sohasidagi kasbiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib uning Gramshi va postmodernist g'oyalariidan foydalanishiga sabab bo'ldi [11, 509-b].

Shuni ta'kidlash joizki, orientalizmning bu tanqidchilari hozirgi zamon ilm-fanining ahvoriga nisbatan oddiygina norozilik bildirish bilan cheklanib qolmay, balki bu sohada sifat o'zgarishlariga erishishga intilishgan. Ular Sharqdagi mavjud madaniyat shakllarini yanada obyektiv va xolisona o'rganishni talab qilib, ilmiy yondashuv va usullarni o'zgartirishga umid qilishgan edi. Ularning tanqidlari tarafkashlik, yevrotsentriзм va siyosiy qaramlikni yengishga qaratilgan edi. Ushbu tadqiqotchilar madaniyatlar xilma-xilligi va ularning o'ziga xosligini hurmat qiladigan yangi paradigmalarni yaratishga intilib Sharq va G'arb o'rtasida yanada muvozanatli va adolatli muloqotni rivojlantirishga o'z falsafiy nazariy yondashuvlari bilan xizmat qilishdi. A.Abdel-Malikning fikricha, "G'arbda qo'llanilgan Sharqni anglash uchun mavjud bo'lgan umumiy tushuncha va usullarni tekshirish, tanqidiy qayta baholash" zarur edi. A. L. Tibaviy sharqshunoslar "tadqiqot muammosini yaxshiroq tushunishlari"ni ko'rsatishlari kerak, deb ta'kidladi. U materiallar bilan yanada chuqurroq va xolisona ishlash zarurligini ta'kidlab, olimlardan islom va arab madaniyatini o'rganishda tarafkashlik va qoliplardan saqlanishni talab qildi. Tibaviy o'rganilayotgan madaniyatlarni tushunish va hurmat qilishga samimiy intilish orqaligina sharqshunoslikda chinakam ilmiy taraqqiyotga erishish mumkin, deb hisoblardi.

Edvard Said haqiqatan ham olimlarning vazifasi sharqshunoslik merosini shunchaki yengish emas, balki bilimdan naqadar osonlik bilan subyektiv, kamsituvchi maqsadlarda foydalanish mumkinligini doimo eslatib turishdan iborat deb hisoblardi. Said o'zining "Orientalizm" asarida bilim hech qachon betaraf va ob'yektiv bo'lmaydi, deb ta'kidlagan; u har doim kuch bilan bog'liq va manipulyatsiya va boshqarish uchun ishlatilishi mumkin [11, 60-b]. Said ta'kidlaganidek, sharqshunoslik shunchaki ilmiy fan emas, balki stereotiplarni yaratishga va mustamlakachilik ekspansiyasini asoslashga hissa qo'shgan madaniy amaliyotlarning butun bir majmuasidir. U olimlar bu merosdan xabardor bo'lishlari va bilimdan foydalanib, bir madaniyatning boshqa madaniyat ustidan hukmronligini oqlash uchun har qanday urinishlardan ogoh bo'lishlari kerak, deb hisoblardi. Shunday qilib, Said olimlarni tanqidiy fikrlash va axloqiy mas'uliyatga chorlab, fanning vazifasi nafaqat haqiqatni topish, balki bu haqiqatdan noto'g'ri foydalanishning oldini olish ekanligini ta'kidladi. Sharqshunoslik merosi, Saidning fikricha, bilimning siyosiy maqsadlarda osonlikcha buzib tashlanishini eslatib turishi va kelajakda bunday xatolar takrorlanmasligidan ogohlantirish bo'lishi kerak.

Biroq, bu olimlar tomonidan boshlangan tanqidlar munozaradan holi emas edi. Bundan tashqari, E. Saidning "Orientalizm" kitobini nashr etilguniga qadar, bu masaladagi akademik chiqishlar har doim ham bu darajada muvaffaqiyatli bo'lmagan. Aynan shu asar G'arb va Sharq munosabatlarida yangi inqilobni boshlab berdi va Sharqni o'rganish sohasida mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish uchun kuchli turtki bo'ldi. Saidning "Orientalizm" asari burilish nuqtasi bo'lib, jahon miqyosida bahs-munozaralarni yuzaga keltirib, akademik muhitda muhim o'zgarishlarga sabab bo'lib gumanitar fanlarning keyingi rivojlanish vektoriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. E.Said ilgari surgan nazariyalar va g'oyalarning keng qamrovda muhokama qilinib e'tiborni tortganligini sabablarini ko'rsatish murakkab. Biroq uning tadqiqot ishini noyob va ahamiyatli qilgan bir qator xususiyatlar mavjud. E.Said g'oyalari nafaqat madaniyatlararo muloqot sohasi, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotchilarining bunday keng doirasi e'tiborini tortganligining sabablarini aniqlash qiyin. Biroq, uning ishini noyob va ahamiyatli qilgan bir qator xususiyatlar mavjud:

1. Fanlararo yondashuv: Said turli xil bilim sohalari - adabiyot, tarix, falsafa va madaniyatshunoslik g'oyalarini birlashtira oldi, bu uning ishini turli fanlardagi tadqiqot natijalari bilan aks ettirishga imkon berdi.
2. Bilim va hokimyat munosabatini tanqid qilish: Said, ayniqsa Sharqqa oid bilimlarning ishlab chiqilishi va shakllanishidagi an'anaviy usullarni shubha ostiga qo'ydi.
3. Post-kolonial nazariyaning ta'siri: Saidning sharqshunosligi postkolonial tadqiqotlar uchun asosiy konsepsiya bo'lib, mustamlakachilik va uning merosini zamonaviy fan va madaniyatda tanqid qilish uchun paradigma va usullarni ishlab chiqdi.
4. Muhimligi va zamonaviyligi: Saidning ishi XX asr oxirida, o'ziga xoslik, globallashuv va madaniy xilma-xillik masalalari tobora muhimroq bo'lgan paytda jamoatchilik va akademik munozaralarda aks-sado berdi.

Said birinchi bo'lib nafaqat mustamlakachilik va imperializmni, balki sharqshunoslarning o'zlarini ham G'arbning reduksionistik va imperialistik yondashuvlari uchun ham tanqid qilgan edi. Edvard Said bu sharqshunoslar toifasiga F. R. de Shatobriand va J. de Nerval kabi yozuvchilarni kiritdi. Ularning asarlari bir qarashda G'arb madaniy an'alarining shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar sifatida ko'rilsa ham sharqshunoslikning akademik an'analari bilan aniq aloqasi tahlillarda ko'rinmaydi. Said ularning asarlari ilmiy tadqiqot bo'lmasa ham, Sharqning qolipli obrazlarini yaratish va uni ommalashtirishda katta rol o'ynaganligini ta'kidladi. Bu mualliflar Sharq madaniyatining adabiy obrazlari va talqinlari orqali sharqshunoslik diskursining shakllanishiga xizmat qilishdi. Saidning fikricha, bu G'arbning Sharqqa bo'lgan qarashining ajralmas qismiga aylanib keyingi tadqiqotlar, ilmiy va madaniy yondashuvlarga ta'sir qilib, E.Said nuqtayi nazaridan bunday yozuvchilar Sharq va uning aholisining to'g'ridan-to'g'ri obrazini ham shakllantirdilar. G'arb orientalistlarining asarlarida Yevropa kishisi mantiqiy, insonparvar, ustun, haqiqiy erkak, ijodiy faol sifatida qabul qilinadi, Sharq esa "boshqa" irratsional, zulmkor, passiv va ayol sifat mavjudlik sifatida talqin qilinadi. E.Said nuqtai nazaridan «arab aqli», «Sharq ruhi», «Islom jamiyati» kabi tushunchalarni «yaratgan» sharqshunoslar mavjud edi [11, 465-b]. Ular birgalikda Sharqda ongli yoki ongsiz ravishda hukmronlik qilish, qayta qurish va hokimiyatni qo'llash uchun mo'ljallangan "mustahkam gegemon tizim"ni yaratishga hissa qo'shdilar [11, 37-b]. Said Sharqning ekzotik, sirli va qoloq mintaqa sifatidagi tasvirlari mustamlakachilik ekspansiyasi uchun mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilib, G'arb va Sharq o'rtasida assimetrik kuch munosabatlarini yaratadi, deb hisoblaydi. Bu diskurs Yevropa imperialistik siyosatining asl maqsadlarini yashirib, o'z missiyalarini sivilizatsiya sifatida qabul qildirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, E.Said o'zidan oldingilaridan farqli o'laroq, "Sharq" va "G'arb" o'rtasidagi ontologik va gnoseologik farqga asoslangan fikrlash uslubini nazarda tutgan o'zining asl nazariyasini – orientalizm kontsepsiyasini shakllantirdi". Said o'z kontsepsiyasida orientalizm shunchaki ilmiy fan emas, balki G'arbning Sharqni idrok etuvchi va tasvirlaydigan butun bir fikr va g'oyalar tizimi ekanligini ta'kidlaydi. Sharq va G'arb o'rtasidagi bu farq nafaqat madaniy va intellektual an'alar uchun asos bo'libgina qolmay, balki G'arbning Sharqdagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligini oqlash uchun ham qo'llanildi. Said sharqshunoslikni Sharq haqidagi stereotiplar va soddalashtirilgan g'oyalarni shakllantiruvchi vosita sifatida qaradi, bu esa pirovard natijada assimetrik kuch munosabatlarini saqlab qolishga yordam berdi [11, 9-b].

Natija. E.Said o'z kitobida Yevropa olimlari, shoirlari, faylasuflari, imperator ma'murlari, tarixchilar, siyosatchilar, sayyohlarning sayohatnomalarida namoyon bo'lgan orientalizmga o'nlab misollar keltiradi. U orientalizmni G'arb madaniyati va ongida chuqur ildiz otgan, murakkab va barqaror bilim va g'oyalar tizimidir, deb hisoblagan. Uning fikricha, sharqshunoslik shunchaki noto'g'ri qarashlar yig'indisi emas, balki G'arb va Sharq o'rtasidagi kuch munosabatlarini qayta yaratadigan va mustahkamlovchi tizimli fikrlash shaklidir. Demak, sharqshunoslikni tanqid qilish va dekonstruksiya qilish afsona yoki yolg'on da'volarni inkor etishdan ko'ra chuqurroq tahlil va tushunishni talab qiladi [11, 14-b]. Shunday qilib, orientalizm uning uchun "Yevropa moddiy sivilizatsiyasi va madaniyatining ajralmas qismi" sifatida ingliz, frantsuz va keyinroq Amerika imperializmining quroli bo'ldi [17, 8-b]. Said sharqshunoslik G'arb davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning mustamlakachilik ekspansiyasini

oqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan va bu kuchni asoslovchi va mustahkamlovchi talqinlarni yaratish orqali Sharq ustidan hokimiyatni shakllantirishga yordam berganligini ta’kidlagan.

A. Abdel-Malik, A.L. Tibaviy va E. Said tomonidan shakllantirilgan sharqshunoslik tanqidiga ko‘plab javoblar berildi. A. Abdel-Malikning “Inqirozda sharqshunoslik” maqolasi Sorbonnadagi islomshunos olim K. Kan va Rim universiteti arab tili va adabiyoti professori F. Garbiellilarning tanqidiy munosabatlariga sabab bo‘ldi. A. L. Tibaviyning g‘oyalari Kanadadagi islomshunoslik institutida ishlagan sharqshunos olim D. Litl tomonidan tanqid qilib chiqildi. Bu javoblar yangi tanqidiy yondashuvlarga akademik qarshilikni aks ettirdi va orientalizm atrofidagi munozaralarning murakkabligi va qarama-qarshilik xususiyati bilan xarakterlandi. Shunga qaramay, Said, Abdel-Malik va Tibaviy kabi munaqqidlar sharqshunoslikda an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlashda davom etishdi, bu esa ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qildi. E. Saidning fikrlariga kelsak, bu yondashuvlar turli fan sohalari olimlarining keng doirasida kuchli reaksiyaga sabab bo‘ldi. Uning tezislarni ishonchli deb topganlar orasida S. Shar “Orientalizm imperializm xizmatida” (“Orientalism in the Service of Imperialism”), R. Inden “Tasavvurdagi Hindiston” (“Imagining India”), E. Uilson “Sharqshunoslik: qorong‘u nuqtai nazar” (“Orientalism: The Dark Vision”), va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Ayni paytda Said, B. Lyuis «Sharqshunoslik masalasi» (The Question of Orientalism), D. Kopf «Tarixga qarshi germenitika» (Hermeneutics versus History), J. Makkenzi «Edvard Said va tarixchilar» (Edward Said and the Historians) kabi qator olimlar tomonidan o‘zlarining keltirilgan asarlarida qattiq tanqidga uchradi.

Bundan tashqari, Said g‘oyalariga umuman xayrixoh bo‘lgan, biroq uning nazariyasining qator jihatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lgan tadqiqotchilar ham bor edi. Ular orasida Sodiq Jalol Al-Azm “Orientalizm va teskari oriyentalizm” (“Orientalism and Orientalism in Reverse”), Ayjaz Ahmad “Sharqshunoslik va tarixiylik o‘rtasida” (“Between Orientalism and Historicism”), J. Klifford “Sharqshunoslik haqida” (“On Orientalism”) va F. Xollidey “Sharqshunoslik va uning tanqidchilari” (Orientalism and Its Critics) bor. Bu olimlar Said ijodining muhimligini tan olishgan, lekin uning zaif tomonlarini ham ko‘rsatganlar yoki muqobil talqinlarni taklif qilib o‘z nazariyalarini rivojlantirishdi. Albatta bunday keng ko‘lamdagi muhokamalar Saidning akademik doiraga ko‘rsatgan ta’siri hisoblanadi.

E. Saidning tanqidchilar qarashlaridan eng muhim farqi shundaki, u G‘arb sharqshunosligiga postmodern falsafa prizmasi asosida yondashadi. Bernard Lyuiz o‘zining “Sharqshunoslik masalasi” (1982) maqolasida Edvard Saidni tanqid qiladi. Chunki Lyuiz Said o‘zining “Orientalizm” kitobida tarixiy faktlarni buzib ko‘rsatishi tarixiy kontekstda o‘zgarishlarga olib keladi, deb hisoblaydi. Lyuis Saidni mamlakatlarni, tarixchilarni va ularning asarlarini izchillik va mantiqsiz tanlaganlikda, ularni o‘z nazariyasiga moslashtirganlikda ayblaydi. Lyuis, shuningdek, Said tarixiy faktlarni bilmasligini ko‘rsatishga harakat qiladi, bu esa, uning fikricha, Saidning xulosalarining argumentatsiyasiga putur yetkazadi. Lyuis Saidning yetakchi tanqidchilaridan biri bo‘lib, Said G‘arb Sharq olimlarining ishlarini haddan tashqari umumlashtirib, noto‘g‘ri talqin qiladi, deb hisoblaydi. Lyuisning ta’kidlashicha, Said sharqshunoslikning murakkabligi va xilma-xilligiga e’tibor bermay, uni faqat mustamlakachilikni oqlashga qaratilgan monolit tadqiqot sohasi sifatida ko‘rsatishga harakat qiladi. [13, 46–58-b].

Saidning sharqshunoslik kontseptsiyasida, D. Kopfning fikricha, tarixiy aniqlik, to‘liqlik va noziklik yetishmaydi [14, 11-b]. J. Makkenzi “Eduard Said va tarixchilar” maqolasida 18-asr va 19-asr boshlarida Britaniya madaniyati va ongi uchun asosiy “boshqa” Fransiya bo‘lganligini, keyin esa keyingi bir yarim asrda ushbu ro‘yxatga Rossiya va Germaniya qo‘shilganini ta’kidlaydi. Makkenzi Saidning sharqshunoslikni idrok etishini tanqid qilib, Said “imperiya madaniyatining beqarorligi, turg‘unligi va ko‘rinib turgan g‘ovakligi”ni inobatga olmadi, deb ta’kidladi. Makkenzi fikricha, Said ijodida nafaqat Sharqqa munosabat, balki Yevropaning boshqa davlatlari bilan raqobat natijasida shakllangan ingliz imperializmining murakkab va o‘zgaruvchan tabiati aks ettirilmagan. Shu nuqtai nazardan, Makkenzi Saidning asarini “juda g‘ayritabiiy” deb hisoblaydi va bu o‘rqli Saidni o‘z nazariyasi foydasiga, tarixiy voqelikni soddalashtirib, buzib talqin qilishda ayblaydi [15, 130–134-b].

Edvard Said orientalizmi tanqidchilari Saidning metodologiyasi va keltirgan dalillari bilan bog'liq bir qancha jihatlarga e'tibor qaratishdi. Asosiy tanqidlardan biri Sharqni o'rganishdagi kengroq yo'nalish va qonuniyatlarni aks ettirmaydigan Saidning tanlab olingan va tasodifiy faktlarga tayanishi edi. Tanqidchilarning ta'kidlashicha, Said istisno yoki kamyob holatlar bo'lishi mumkin bo'lgan misollarni ishlatib, ularni butun sharqshunoslik sohasiga xos va xarakterli deb ko'rsatdi. Ularning fikricha, uning yondashuvi haddan tashqari siyosiydosh va bu orientalizimga faqat mustamlakachilik hukmronligini oqlash va saqlab qolishga qaratilgan yagona tadqiqot loyihasi sifatida qarashga olib keladi deb hisoblashadi [11, 312-b].

Biroq yuqoridagi tanqidiy yondashuvlarga Edvard Said javob o'laroq o'zining "Sharqshunoslikka qayta nazar" nomli yozgan maqolasida va "Orientalizm" kitobining keying nashridagi so'z boshida uning maqsadi G'arbga qarshi risola yaratish yoki Islom va arablarni himoya qilish emasligini takidlab, u Sharq-G'arb munosabatlari tarixini yoki Britaniya va Fransiya mustamlakachiligi tarixini qayta ko'rib chiqishni maqsad qilmaganini, aksincha, uning asosiy maqsadi Yevropa mustamlakachilik hokimiyati manfaatlariga xizmat qilish uchun ongli ravishda yoki ongsiz ravishda ishlab chiqilgan nazariyalar va amaliyotlar majmuasi sifatida "orientalizm diskursi"ning mohiyatini tanqidiy ko'rib chiqishdan iborat ekanligini takidlaydi.

Uning tushunchasiga ko'ra, sharqshunoslik faqat Sharq haqidagi ilmiy bilimlar majmuasi emas, balki G'arb hukmronligini mustahkamlagan holda Sharq haqidagi bilimlarni shakllantirgan va nazorat qiluvchi kuch tizimi edi. Said shu tariqa sharqshunoslik (orientalizm) mustamlakachilikni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun foydalanilgan kattaroq kuch va bilim tizimining bir qismi ekanligini ko'rsatishga intildi. Bu uning madaniy va ilmiy g'oyalardan siyosiy va imperialistik manfaatlar uchun qanday foydalanish mumkinligini ochib berish g'oyasiga mos kelar edi.

Shu o'rinda takidlash lozim, Saidni tarixiy aniqlik emas, balki bu g'oyalarning yaratilishi va qayta ishlab chiqarilishining madaniy va intellektual mexanizmlarini tahlil qilish qiziqtiradi [11, 15-b]. Bundan tashqari, Edvard Saidning diskurs nazariyasidan foydalanishi har doim ham Mishel Fuko tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga qat'iy mos kelavermaydi. Said orientalizmni tahlil qilish uchun diskurs tushunchasidan foydalangan, lekin bundan o'z maqsadlari va qarashlariga muvofiq foydalangan. Qolaversa, Said "Yevropatsentriзм mafkurasi" Qadimgi Yunonistonda allaqachon mavjud bo'lgan degan g'oyani ilgari surishi Fuko qarashlariga mutlaqo zid ekanligi tanqidlarda takidlanadi. Chunki Fuko kuch va hokimiyat bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy shakllangan diskurslarni tahlil qilishga e'tibor qaratgan va o'z nazariyalarini qadimgi tarixiy davrlargacha kengaytirmagan. Fuko diskursni hozirgi davrda vujudga kelgan muayyan ijtimoiy va tarixiy kontekstlar bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos "fenomen" sifatida talqin qiladi.

Umuman xulosa qilib aytganda Saidning diskurs nazariyasiga yondashuvi Fukoning tushunishidan ko'ra ko'proq moslashuvchan va qat'iy emas. Said bu nazariyani qo'llash doirasini, asrlar davomida G'arbning Sharq haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan tarixiy va madaniy munosabatlar tahlili qilib belgilab oladi. Bu Ayoq Ahmad kabi boshqa mutafakkirlarning ba'zi tortishuvlari va tanqidlariga sabab bo'ldi, ular Said o'zining sharqshunoslikni tahlil qilishida Fukoning diskurs tushunchasini buzib ko'rsatgan yoki noto'g'ri talqin qilgan deb hisoblaydilar [16, 291-b].

Akademik jurnallarda orientalizimga oid bahslar shunchaki intellektual mavzular bilan cheklanib qolmadi. Balki B.Lyuis kabi tanqidchilar nazarida, E.Saidning sharqshunoslikni tanqidiy tahlil qilishini, ilm-fanga va muammoni tushunishga qo'shgan hissasi sifatida ko'rib bo'lmasligi takidlanib, aksincha, yahudiyshunoslikka va G'arbga, xususan, AQSHga qarshi "hujum" sifatida baholandi. Bernard Luizga ko'ra "u dushmanlik kayfiyati motivlaridan ilhomlangan polemist edi" [17]. Boshqa tomondan, Said B. Lyuisga sharqshunoslik gildiyasining klassik vakili sifatida qarab uni islomofobiya va arablarga qarshi ksenofobiyada ayblaydi [18, 13-b].

E.Saidning "Orientalizm" kitobi nashr etilganidan keyin ham uzoq yillar davomida ilm-fan olamining diqqat markazida bo'lib turdi. 1980-yillar o'rtalarida Esseks universitetida bo'lib o'tgan konferensiyada Said "imperialistik loyiha"da chuqur ishtirok etgan sharqshunoslar Sharqning salbiy qiyofasi yaratilishiga hissa qo'shganligi haqidagi tezisini himoya qilib, tanqidlarga javob berdi. Bu

davrda uning qarashlari arab millatchilari, islom fundamentalistlari va B.Lyuis, A.Ahmad kabi sharqshunoslar tomonidan tanqidga uchradi.

Xulosa. Zamonaviy ijtimoiy soha vakillari orasida orientalizm tanqidchilari tarafdorlari ham, tadqiqotning an'anaviy usullarini qo'llab-quvvatlovchilar ham mavjud. Ammo shuni aytish mumkin, orientalizmda 1960-yillarda boshlangan postmodernizm falsafiy tafakkuri asosida vujudga kelgan inqirozni ma'lum bir ma'noda yengib o'tdi. Biroq, orientalizmdan, ya'ni Sharqni sxematik va reduksionistik tadqiq etish paradigmalaridan "qochish" yo'llarini izlash davom etmoqda. Bu yondashuv asosida G'arb orientalizm maktablarida Sharqqa nisbatan yangi obyektiv fan qadriyatlariga mos paradigmalar shakllana boshladi. A.Abdel-Malik, A.L.Tibaviy va E.Saidlarning g'oyalari tufayli nafaqat sharqshunoslik, balki Osiyo va Afrika mamlakatlari tarixini, madaniyatini, falsafiy me'rosini o'rganish bilan bog'liq boshqa fan yo'nalishlari ham qayta tahlildan o'tkazildi. Dunyo endi faqat G'arb g'oyalari va qadriyatlari sifatida qabul qilinmay balki Sharq ham monolit tadqiqot obyekti va G'arb yaratgan o'zgarimas diskurs bo'lishdan to'xtadi. Bu davrga kelib postmodernizm tafakkuri asosida sobiq mustamlakachi davlatlar va ularning sobiq koloniyalari kolonializm me'rosiga eski paradigmalar tanqidi asosida qarash shakllandi. E.Saidning "Orientalizm" kitobi sharqshunoslikda, xususan, post-kolonial nazariya va mustamlakachilik diskursi nazariyasida yangi tadqiqot tendensiyalarining boshlanishi bo'lib, umuman gumanitar va ijtimoiy fanlarning keyingi rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu sohadagi ijobiy o'zgarishlarga va yangi yondashuvlar allaqachon ishlab chiqilganiga qaramasdan, bu usullarning qo'llanilishi yoki ular haqiqatan ham tadqiqot paradigmasini o'zgartira olishi haqida gapirish hali erta. Aynan shu sababli G'arb sharqshunosligini tanqid qiluvchi olimlarning ishlari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T. Orientalism past and present: An introduction to a postcolonial critique // The Stockholm J. of East Asian Studies. 2003.
2. Macfie A. L. Orientalism: A Reader. New York, 2000.
3. Никитин М. Д. Ориентализм Э. Саида, теория колониального дискурса и взаимодействие Востока и Запада: к выработке нового понимания проблемы // Новая и новейшая история. 2003.
4. Abdel-Malek A. Orientalism in Crisis // Diogenes. 1963.
5. Tibawi A. L. English-Speaking Orientalists: A Critique of Their Approach to Islam and Arab Nationalism. Pt. 1 // Islamic Quarterly. 1964.
6. Саид Э. В. Ориентализм. Западные концепции Востока. СПб., 2006.
7. Macfie A. L. Op. cit. P. 27.
8. Abdel-Malek A. Op. cit. P. 103.
9. Tibawi A. L. Op. cit. P. 3.
10. Саид Э. В. Указ. соч. С. 509.
11. Lewis B. The Question of Orientalism [Review] // New York Review of Books. 1982. Vol. 13, № 29. P. 46–58.
12. Rev. of the book: Said E. W. Orientalism. New York, 1978. P. 11–12.
13. Macfie A. L. Orientalism. London, 2002. P. 11.
14. Williams P. Edward Said: in 4 vol. London, 2001. Vol. 3. P. 130–134.
15. Саид Э. В. Указ. соч. С. 312.
16. Macfie A. L. Orientalism: A Reader. New York, 2000. P. 291.
17. Lewis B. The Question of Orientalism [Review].
18. Macfie A. L. Orientalism. London, 2002. P. 13

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 5, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000